

# **2025 yil I-yarim yillikda amalga oshirilgan import hajmi hamda importni qisqartirish bo'yicha ko'rيلayotgan chora-tadbirlar to'g'risida MA'LUMOT**

## **ИНФОРМАЦИЯ об объемах импорта и принятых мерах по сокращению импорта за I полугодие 2025 года**

### I. Kombinat tomonidan amalga oshirilgan import tahlili.

2025 yilning yanvar-iyun oylarida kombinat bo'yicha mahsulot va xizmatlar importi hajmi **45,0** mln. dollarni tashkil etdi.

"Navoiy KMK" AJ ning mahsulot va xizmatlar importi tarkibi quyidagicha:

1. Mashina va uskunalar – 0,3 mln. doll. (0,8%);
2. Butlovchilar va ehtiyyot qismlari – 34,3 mln. dollar (76,2%), shu jumladan:
  - ichki yonuv dvigatellari (*18,9 mln. dollar*),
  - kon texnikasiga ehtiyyot qismlari (*15,4 mln. dollar*).
3. Hom-ashyo va materiallar (og'ir yuk ko'taradigan kon-shaxta texnikasi uchun shinalar, oltin namunalari) – **0,6** mln. dollar (1,2 %);
4. Xizmatlar – **9,8** mln. dollar (21,8%).

Kombinatning asosiy faoliyatiga taalluqli bo'lмаган, Mahalliy lashtirish dasturi doirasida ishlab chiqariladigan mahsulotlar importi amalga oshirilmadi.

### II. Kombinat bo'linmalarini quvvatlarida mahalliy lashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqarish.

2025 yilda mahalliy lashtirilgan mahsulotlarni ishlab chiqarish bo'yicha tasdiqlangan rejaga muvofiq, joriy yilning yanvar-iyun oylarida 172 ta (grafik bo'yicha 172 ta) loyiha bo'yicha **757,5** mlrd.so'mlik yoki davr prognoziga nisbatan 101,4%ga mahsulotlar ishlab chiqarilib, 2024 yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 160,6 %ni tashkil etdi.

Xususan, dastur doirasida yangi turdag'i yirik maydalash tegirmoni, dozalash nasosi, havo-chang zarralarini tortish uskunasi, issiqlik almashinuv uskunasi, yangi turdag'i ekskavator butlovchi va ehtoyot qismlari kabi yangi turdag'i importga o'rnnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarildi.

### III. Mahalliy ishlab chiqaruvchilar bilan kooperasiya aloqalarini kengaytirish va kooperasiya hisobiga importni optimallashtirish.

2025 yilning yanvar-iyun oylarida sanoat kooperasiyasi doirasida mahalliy ishlab chiqaruvchilardan xarid qilingan sanoat mahsulotlar hajmi **3 631,6** mlrd. so‘mni va 2024 yilning mos davriga nisbatan 113,0 % ni tashkil etdi.

Kombinat tomonidan xarid qilinishi ko'zda tutilgan, kelib chiqishi import bo'lgan tovarlar to'g'risidagi ma'lumotlarni elektron kooperasiya portalida to'liq o'rghanish orqali ma'lumotnomaga shakllatirilgach xaridlar amalga oshirilmoqda.

“NKMK” AJ tomonidan yanvar-iyun oylarida o'tkazilgan yarmarkalarda faol ishtirok etib, joriy yil boshidan mahsulotlar xarid qilish bo'yicha **1,4 trln.** so‘mlik shartnomalar tuzildi..

“Navoiy KMK” AJ importni qisqartirish va ishlab chiqarishni rivojlantirish bo'yicha ishlarni davom ettirish va xaridlar shaffofligini oshirish bo'yicha doimiy choralar ko'rilmoxda.